«TASDIQLANGAN»
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi"
davlat muassasasi
Farmakologiya qo'mitasi
«30» 12 2025 y. №29

TIBBIYOTDA QO'LLANISHIGA DOIR YO'RIQNOMA
VOLVIT

Preparatning savdo nomi: Volvit
Ta'sir etuvchi modda (XPN): biotin
Dori shakli: plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar.
Tarkibi:
Xar bir plyonka qobiq bilan qoplangan tabletka quyidagilarni saqlaydi:
faol modda: biotin 5 mg;
yordamchi moddalar: sellaktoza, natriy laurilsulfat, natriy kroskarmelloza, kolloidli kremniy dioksidi, magniy stearat, Opadry II 85G54348 pushti rang, tozalangan suv.
Ta'rifi: dumaloq shakldagi pushti rangli, plyonka qobiq bilan qoplangan ikkiyoqlama qavariqli yuzali tabletkalar.
Farmakoterapevtik guruhi: Ovqat hazm qilish tizimi va moddalar almashinuvi. Vitaminlar. Boshqa vitamin preparatlari. Biotin.
ATX kodi: A11HA05.

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Biotin (H vitamini, B_7 vitamini) B guruhining suvda eruvchan vitamini hisoblanadi. Biotin organizmda uglevodlar, yog'lar, oqsillar almashinuvida muhim rol o'ynaydi hamda hujayralarning me'yoriy o'sishi va rivojlanishi uchun juda ham kerakli vitamin hisoblanadi. Biotin organizmga tushganida karboksilazalar kofermenti bo'lib xizmat qiladi, insulga o'xshash ta'sir ko'rsatadi va glyukoneogenez jarayonida ishtirok etadi (glyukokinaz sintezida ishtiroki tufayli), buning oqibatida qonda qand miqdorini darajasini barqarorlashtirishiga yordam beradi, nerv tizimi funksiyasini yaxshilaydi. Biotin B guruhining boshqa vitaminlari, folat kislotasi, pantoten kislotasi, sianokobalamin sinergisti hisoblanadi. Biotinning purin nukleotidlari sintezida ishtirok etishi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shuningdek, biotin oqsil – kollagen sintezida ishtirok etadigan oltingugurt manbai hisoblanadi va shu tarzda teri va uning o'simtalari (soch, tirnoq) tuzilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
Biotin odam organizmiga oziq-ovqat mahsulotlaridan tushadi, shuningdek ichaklar mikroflorasi bilan sintezlanadi.

Farmakokinetikasi

Organizmda biotin ingichka ichakda passiv diffuziya orqali so'riladi, shundan so'ng portal tizim orqali jigarga va so'ngra tizimli qon oqimiga o'tadi. Biotinning qon plazmasi oqsillari bilan bog'lanish darajasi 80% ni tashkil etadi. Qonda erkin yoki kuchsiz bog'langan biotinning konsentratsiyasi, odatda, 200 mkg/l dan 1200 mkg/l gachani tashkil etadi. Biotin gematoensefalik va yo'ldosh to'sig'i orqali o'tadi. Organizmda turli metabolitlar paydo bo'lgan holda metabolizmga uchraydi. Siydik (bir sutkada 6 mkg dan 50 mkg gacha) va axlat bilan o'zgarmagan shaklda (taxminan 50%), shuningdek biologik inert moddalar almashinuvi mahsullari shaklida chiqariladi. Yarim chiqarilish davri yuborilgan doza hajmiga bog'liq bo'lib, 100 mkg/kg tana vazni dozasi ichga yuborilganidan so'ng taxminan 26 soatni tashkil etadi.

Qo'llanilishi

Kattalar va 12 yoshdan katta bolalarda biotin tanqisligi tufayli paydo bo'lgan quyidagi kasalliklarni majmuaviy davolash:
-soch kasalliklari (sochni o'ta ingichkalashishi, sinuvchan sochlar, soch to'kilishi, sochlarning yuqori yog'liligi yoki quruqligi, soch oqarishi);
-teri kasalliklari (dermatit, yog'li seboreya, teri quruqligi va sho'ralashi);

-tirnoq kasalliklari (tirnoqlar sinuvchanligi, qatlamlanishi, o'sishi yoki ular tuzilishining buzilishi);
-me'da-ichak yo'llari tomonidan funksional buzilishlar (shu jumladan, malabsorbsiya sindromi);
-biotinidaza yetishmovchiligi;
-psixoemotsional buzilishlar (yuqori asabiylashish va toliqish, seruyqulik, apatiya, mushak bo'shashishi) da qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari
Volvit preparati ovqatlanishdan oldin oz miqdorli suv bilan ichga qabul qilinadi.
Tirnoq, soch, teri kasalliklarini va nerv tizimi tomonidan buzilishlarni davolashda tavsiya etilgan dozasi bir sutkada 5 mg ni tashkil etadi.
Malabsorbsiya sindromida tavsiya etiladigan sutkalik doza 10 mg ni tashkil etadi.
Bolalar va katta yoshdagi patsientlarda biotin tanqisligi belgilarida tavsiya etiladigan sutkalik doza 5-20 mg ni tashkil etadi.
Bolalar va katta yoshdagi patsientlarda biotinidaz yetishmovchiligida tavsiya etiladigan doza bir sutkada 5-10 mg ni tashkil etadi.
Genetik determinatsiyalangan biotinga bog'liq ferment yetishmovchiligida (ko'p sonli karboksilaz tanqisligi) tavsiya etiladigan doza bir sutkada 20 mg ni tashkil etadi.
Preparat uzoq vaqt qo'llanilishi mumkin, bir uzluksiz davolash kursi o'rtacha 1 oyni tashkil etadi.

Nojo'ya ta'sirlari
Nojo'ya reaksiyalar quyida MedDRA (SOC va Preferred Term Level) tizim-a'zo tasnifiga muvofiq keltirilgan. Nojo'ya reaksiyalarning tez-tezligi quyidagi tarzda baholanadi: juda tez-tez (≥1/10); tez-tez (≥1/100 dan <1/10 gacha); tez-tez emas (≥1/1000 dan <1/100 gacha); kam hollarda (≥1/10000 dan <1/1000 gacha); juda kam hollarda (<1/10000), tez-tezligi noma'lum (mavjud ma'lumotlar bo'yicha baholanishi mumkin emas).
Immun tizim tomonidan buzilishlar: tez-tezligi noma'lum – biotinga individual yuqori sezuvchanlik holatida allergik reaksiyalar bo'lishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar
Biotinga yoki preparatning boshqa tarkibiy moddalariga yuqori sezuvchanlik, 12 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri
Biotin tomir tirishishiga qarshi preparatlar bilan birga qo'llanilganida siydik bilan ko'p chiqarilishi natijasida qon plazmasida biotin konsentratsiyalari pasayishi mumkin. Valproat kislotasi jigarda mitoxondriya funksiyasini pasaytirgan holda biotinidaz faolligini kamaytiradi.
Xom tuxum tarkibida avidin proteini saqlanib, u biotin bilan o'zaro ta'sirlanadi, shu tufayli ularni bir vaqtda qabul qilishdan saqlanish kerak. 2-3 hafta davomida ko'p miqdorda xom tuxumni iste'mol qilish biotin tanqisligini paydo qilishi mumkin.
Pantoten kislotasi katta dozalarda biotin bilan raqobatlashadi, shu uchun ularnig bir vaqtda qo'llanilishidan saqlanish kerak.
Klinik laborator ko'rsatkichlariga ta'siri
Biotin va streptavidinning o'zaro ta'siri oqibatida biotin laboratoriya tadqiqotlariga ta'sir etishi mumkin, bu tahlil turiga bog'liqlikka, test ko'rsatkichlari yanglish pasaytirilishi yoki yanglish oshirilishiga olib kelishi mumkin. Bunday ta'sir xavfi bolalar va buyrak yetishmovchiligi bo'lgan patsientlarda yuqori bo'ladi va doza oshirilishi bilan kuchayib boradi. Laborator tadqiqotlari natijalarini talqin qilishda, ayniqsa, klinik manzara bilan nomuvofiqlik kuzatilgan holatda, biotinning ta'sir etish ehtimolini hisobga olish kerak (masalan, qalqonsimon bez tahlili natijalarining ko'rsatkichlari birga kechadigan simptomlar bo'lgan, biroq biotin qabul qilayotgan patsientlarda yoki troponinga testning soxta-salbiy natijalari biotin qabul qilayotgan miokard infarkti bo'lgan patsientlarda diffuz toksik buqoq sifatida talqin qilinishi mumkin). Biotin ta'siri mavjudligi taxmin qilinadigan holatlarda, agar bunday ta'sir bo'lsa, biotinning ta'siriga moyil bo'lmagan muqobil

tadqiqotlardan foydalanish kerak. Biotin qabul qilayotgan patsientlarni laborator tadqiqotlariga yo'naltirishda laborantlar bilan maslahatlashish kerak.

Maxsus ko'rsatmalar
Shifokor tomonidan buyurilgan davolash muddati buzilmasligi kerak. Davolash bekor qilingan holatda preparat samarasi pasayishi mumkin. Biotinga yaxshi chidamlilik tufayli davolash uzoq vaqt davom etishi mumkin.
Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanishi
Homiladorlik yoki emizish vaqtida preparat qo'llanilishiga doir ma'lumotlar yo'q.
Transport vositasini boshqarish va boshqa mexanizmlardan foydalanish qobiliyatiga ta'siri
Preparatning psixomotor reaksiyalari tezligiga salbiy ta'siri yuzasidan ma'lumotlar yo'q.

Dozaning oshirib yuborilishi
Hozirgi vaqtgacha katta dozalar qo'llanilgan holatda ham biotin dozasining oshirib yuborilishi holatlari kuzatilmagan.

Chiqarilish shakli
10 ta tabletka blisterda. 3 ta blister tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti
Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.
Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati:
4 yil.
Yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berilish tartibi
Retseptsiz beriladi.

Ishlab chiqaruvchi
Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Manzili
Plot No. M-3, Indore Special Economic Zone,
Phase-II, Pithampur, Dist.-Dhar, Madhya Pradesh-454774, Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi xududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlarni (takliflar) ni qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili:
BARAKA DORI FARM» MChJ XK
100022, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 91-uy.
Tel.: +998 (78) 150 97 97; faks: +998 (78) 1509787
Mob.: +998 (93) 388 87 82;
E-mail: pv@kusum.uz
Web-sayt: kusum.uz